



TIJORAT BANKLARINING MIKROMOLIYALASHTIRISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Adhamov Umidjon Yorqinjon o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Bank ishi yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining mikromoliyalashtirish xizmatlarini takomillashtirish hamda uni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotimizda mikromoliyalashtirish faoliyatini jadallashtirish yo'llari yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, mikromoliyalashtirish, innovatsion bank, bank xizmatlari, boshqaruv tuzilmasi, bank strategiyasi.

KIRISH

Jahon amaliyotiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligrini oshirish, aholining keng qatlamlari tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, hududlarda mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'lамини kengaytirish, mikromoliya tashkilotlari uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar, shu jumladan depozit jalb qilish imkoniyatini yaratish, mikromoliya tashkilotlari va tijorat banklari o'rtasidagi

«zanjir»ni mustahkamlash yuzasidan bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklarining mokromoliyaviy xizmatlari iste'molchilarining huquqlari vaqonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish hamda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish, shuningdek, xizmat ko'rsatish madaniyati va bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bu borada davlatimiz rahbarining 2023 yil 10 noyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ - 364 sonli qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga asosan mamlakatimizda mikromoliyalash bozori hajmini kamida 5 barobarga oshirish va mikromoliyaviy xizmatlar bilan 1 milliondan ortiq tadbirkorlik sub'ektlarini qamrab olishga qaratilgan 2024-2026 yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligrini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilab berildi.

Xususan, 2024 yil 1 yanvardan boshlab:

- mikroqarzning eng yuqori miqdori 50 mln so'mdan 100 mln so'mgacha oshiriladi;
- nobank kredit tashkilotlari AJ yoki MChJ shaklida tashkil etiladi;



- mikromoliya tashkilotlariga (MMT) norezidentlardan xorijiy valyutada qarz mablag‘larini jalg qilish hamda yuridik shaxslarga xorijiy valyutada moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishga ruxsat beriladi;

- jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan nobank kredit tashkilotining ustav kapitalidagi ulushga egalik qilish uchun Markaziy bank dastlabki ruxsatnomasini olish talabi qonunchilikda belgilangan 10 foizlik ulushni 20 foizga oshirish orqali yumshatiladi. Bunda, olinayotgan ulush miqdori 10 foizdan 20 foizgacha bo‘lganda Markaziy bankni xabardor qilish tartibi joriy etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mikromoliyalashtirish ijtimoiy dastur emas. Bu doimiy daromad manbaiga ega bo‘limgan (masalan, uysizlar yoki kambag‘allar) aholining o‘ta kambag‘al qatlamlariga ijtimoiy nafaqalar shaklida pul berishni nazarda tutmaydi. Uning maqsadi o‘z faoliyatidan daromad olishga qodir bo‘lganlar uchun kichik tashqi moliyaviy “impuls” yordamida bunday imkoniyatga ega bo‘lishdir. Jismoniy shaxslarning banklari tomonidan mikrokreditlar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tganlar uchun amalga oshiriladi. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, boshqa narsalar qatorida, boshlang‘ich tadbirkorlar uchun mikrokreditlarga kirishni murakkablashtiradigan to‘lovni o‘z ichiga oladi.

Ko‘rsatkichlarnomi	01.01.2022 y.		01.01.2023 y.		01.01.2024 y.	
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda
1	2	3	4	5	6	7
Aktivlar						
Kassadagi naqd pullar	12,2	1,0	23,6	1,2	39,2	0,9
Banklardagi mablag‘lar	29,3	2,3	62,2	3,1	86,0	1,9
Kreditlar va mikrolizing, sof	1 123,9	88,3	1 768,5	88,6	3 979,6	89,4
Asosiy vositalar, sof	37,5	2,9	48,2	2,4	88,3	2,0
Hisoblanganfoizlar	41,5	3,3	57,9	2,9	97,6	2,2
Boshqa aktivlar	28,0	2,2	35,5	1,8	159,9	3,6
Jami aktivlar	1 272,4	100,0	1 995,8	100,0	4 450,7	100,0
Majburiyatlar						
Olingan kreditlar va lizing	555,5	94,8	903,2	95,9	2 172,0	79,6

To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar	13,2	2,2	16,4	1,7	47,2	1,7
To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan soliqlar	4,5	0,8	5,0	0,5	11,2	0,4
Boshqa majburiyatlar	12,8	2,2	17,5	1,9	497,5	18,2
Jami majburiyatlar	586,0	100,0	942,1	100,0	2 727,9	100,0
Kapital						
Ustav kapitali	377,1	54,9	564,3	53,6	820,7	47,6
Zaxira kapitali	31,6	4,6	45,8	4,4	58,8	3,4
Taqsimlanmagan foyda	277,7	40,5	443,5	42,1	843,3	48,9
Jami kapital	686,4	100,0	1 053,6	100,0	1 722,8	100,0

1-jadval. Mamlakatimizdagi mavjud mikromoliyatashkilotlari jamlanma balansi [9]

Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, mikromoliya tashkilotlarining umumiyligi aktivlari 2022 yilda 1 272,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024 yilga kelib 4 450,7 mlrd. so‘mga yetgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2022 yilga nisbatan 3178,3 mlrd. so‘mga ko‘paygan. Mikromoliya tashkilotlarining jami majburiyatları esa 2022 yilda 586,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024 yilga kelib 2 727,9 mlrd. so‘mga yetgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2022 yilga nisbatan 2141,9 mlrd. so‘mga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Mikromoliya tashkilotlarining jami kapitali 2022 yilda 686,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024 yilga kelib 1 722,8 mlrd. so‘mga yetgan bo‘lib bu ko‘rsatkich 2022 yilga nisbatan 1036,4 mlrd. so‘mga ko‘paygan. Ushbu ko‘rsatkichlar shundan dalolat beradiki, o‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizdagi mavjud mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy holati o‘sish dinamikasiga ega bo‘lib, bu holat mamlakatimizdatadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga turtki beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 noyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qaroriga asosan 2024 yil 1 yanvardan boshlab:

- mikroqarzning eng yuqori miqdori 50 mln so‘mdan 100 mln so‘mgacha oshiriladi;
- nobank kredit tashkilotlari aksiyadorlik jamiyati yoki mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etiladi;



- mikromoliya tashkilotlariga norezidentlardan xorijiy valyutada qarz mablag'larini jalg qilish hamda yuridik shaxslarga xorijiy valyutada moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga ruxsat beriladi;
- jismoniy shaxs bo'lgan ishtirokchilardan (aksiyadorlardan) ustav fondiga (ustav kapitaliga) kiritilgan hissa summasining yoki ularning egaligidagi aksiyalar nominal qiymatining ikki baravaridan oshmaydigan miqdorda qarz mablag'larini jalg etishga ruxsatberiladi;
- mikromoliya tashkilotlari tegishli litsenziya olgan holda to'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi;
- jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan nobank kredit tashkilotining ustav kapitalidagi ulushga egalik qilish uchun Markaziy bank dastlabki ruxsatnomasini olish talabi qonunchilikda belgilangan 10 foizlik ulushni 20 foizga oshirish orqali yumshatiladi. Bunda, olinayotgan ulush miqdori 10 foizdan 20 foizgacha bo'lganda Markaziy bankni xabardor qilish tartibi joriy etiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Tijorat banklari mikromoliya xizmatlarini ko'rsatayotganda, iste'molchilarga (mijozlarga) nisbatan halollik, shaffoflik, o'zaro hurmatva xolislik prinsiplariga rioya etishi kerak. Shuningdek, xizmatlar ko'rsatishning qonun talablariga muvofiq o'zları ishlab chiqqan qoidalariga binoan xizmatlar ko'rsatishi milliy iqtisodiyotimizda mikromoliya xizmatlarining rivojlanishiga hissa qo'shami.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 noyabrdagi «Tadbirkorlikfaoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ - 364 sonli Qarori.
2. O'RQ-765-son 20.04.2022. Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida (lex.uz).
3. Raxmanov I.X. O'zbekiston Respublikasida mikromoliyaviy xizmatlarni takomillashtirish yo'llari. Nomzodlik dissertatsiyasi. 2012 yil. D 005.25.01.
4. Madumarov T.T. Mikrokredit tashkilotlarini qayta tashkil etish va tugatish asoslari va tartibi. Ilmiy maqola. // Yurist axborotnomasi. Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnal. ISSN 2181-9416. 1-son. 2021 yil 15 mart.